



№ 1/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**



ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 1 2026 fevral

## Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
2022-yil 25-oktyabrda  
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan  
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va  
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
Oliy attestatsiya komissiyasi  
Rayosatining 2024-yil 8-maydagi  
№354-sonli qarori bilan  
**Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy attestatsiya  
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy  
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar  
ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili: 170100 Andijon shahri,  
"Do'stlik" ko'chasi, 4uy, 216-xona.  
Electron manzil: info@adpi.uz  
Telegram: ADPI\_Ilmiy\_xabarnomasi  
Telefon raqamlari: +998 91 484 40 90

1/1

**BOSH MUHARRIR:**  
**B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor**  
**Mas'ul muharrir:**  
**B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor**

### TAHRIR KENGASHI

**S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi**  
**I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor**  
**Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor**  
**A.E. Zaynabiddinov- biologiya fanlari doktori, professor**  
**B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor**  
**A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor**  
**Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor**  
**Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.A. Tojiboyeva – filologiya fanlari doktori, professor**  
**Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor**  
**A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc). professor**  
**T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent**  
**M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent**  
**A.A. Zaparov- texnika fanlari nomzodi, professor**  
**U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor**  
**M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor**  
**L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor**  
**Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent**  
**D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**O'M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**K.S. Karimov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**  
**M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)**  
**N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)**  
**M.I. O'rinboev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

**Muharrirlar:**  
**O.Karimov,**  
**U.Malikova,**  
**B. Mashrabova.**

## MUNDARIJA

### PEDAGOGIKA

<b>Hasanov Sh.A.</b> Adabiyot fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari talqini .....	4
<b>Qoraboyev J.B.</b> "Giperbola konseptual semantikasi"ni voqelantiruvchi til birliklarining lingvokognitiv, psixolingvistik, sotsiolingvistik va lingvostilistik tavsifi .....	8
<b>Umurzaqova N.S.</b> Bo'lajak farmaseftlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi .....	13
<b>Камалходжаева С.С.</b> Язык как объект лингвистического исследования .....	16
<b>Абдуллаева А.Э.</b> Современные и передовые педагогические технологии в преподавании иностранных языков .....	19
<b>Karimov O.T., Mirzayev O.X.</b> Talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan "lumiyera" metodi asosida ishlashga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari .....	23
<b>Jo'rayeva M.A.</b> Kasbiy tayyorgarlikni integrativ yondashuv asosida shakllantirish .....	29
<b>Ikromov M.X., Abduraimova M.A.</b> Talabalarga muhandislik kompyuter grafikasidan foydalanib o'qitishning mazmuni .....	33
<b>Ikromov M.X., G'ulomova M.N.</b> Rangtasvir darslarida axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalardan foydalanish .....	37
<b>Mamatisaqova G.A.</b> Farmasevtika ishi yo'nalishida kompetensiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirishda xorij tajribasi .....	41
<b>Mamadaliyev B.K.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish .....	45
<b>Axmedova D.X.</b> Boshlang'ich ta'limda ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirishning yangi metodlari .....	48
<b>Kosimova G.M.</b> Yangi pedagogik texnologiyalar vositasida darsliklar bilan ishlash bo'yicha o'quv jarayonini loyihalash .....	53
<b>Xoldarova M.Q., Tairova M.B.</b> Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida nutq o'stirish darslari orqali "soft skills" ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi .....	57
<b>Abdurahmonova H.V.</b> Saniye Benjik Kanganing o'yin pedagogikasi va rivojlantiruvchi muhit haqidagi qarashlari .....	61
<b>Xurshidbekov A.M.</b> Erkin kurashchilarda tezlik sifatining shakllanishi va rivojlanishining uslubiy asoslari .....	67
<b>Olimjonov O.O.</b> Integratsiyalashgan tarbiya: talabalarda jismoniy salohiyat va ma'naviy immunitetni shakllantirish usullari .....	71
<b>Usarov M.M.</b> Talabalar estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy xalq o'yinlaridan foydalanining dolzarbligi .....	75
<b>Karimova F.Z.</b> Integrativ yondashuv asosida bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy -metodologik asoslari .....	80
<b>Xakimov Sh.T.</b> Yosh belbog'li kurashchilarga texnik usullarni o'rgatish bosqichlari .....	83
<b>O'rinboyev L.X.</b> Farmakodinamikaning fan sifatida farmakologiyada tutgan o'rni .....	89
<b>Sobirjonov I.T.</b> Farmakokopetentlik tushunchasi va uning asosiy komponentlari .....	95
<b>No'monova G.D.</b> Klinik farmakologiya fani o'qitish tizimining amalyotdagi holatini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish .....	100
<b>Xodjayev M.K.</b> Oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlashning pedagogik aspektlari .....	105
<b>Kodirov M.A., Otashev D.R.</b> Basketbolda sportchilarni jaroxatlanishni oldini olish va tiklash usullari .....	110
<b>Samatov D.T., Abdullaev G'A.</b> Umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarining maxsus jismoniy tayyorgarligini darsdan tashqari mashg'ulotlar asosida rivojlantirishning pedagogik modeli .....	114
<b>Samatov D.T., Abdullaev G'A.</b> Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda darsdan tashqari mashg'ulotlarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish metodikasi .....	118
<b>Mullajonov Sh.I.</b> Sport turlarining tavsifi va sportchi faoliyatida ruhiy tayyorgarlikning roli .....	124
<b>Otashev D.R., Otasheva O.H.</b> O'smirlarnigh psixologik munosabatlari shakllantirishda jismoniy tarbiyani o'rni .....	129

Tadqiqot davomida taklif etilgan “Fantaziya zanjiri” metodi ijodiy yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirishda samaradorligi bo‘yicha amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning: tasavvurini, mantiqiy fikrlashini, mustaqil fikrlashini rivojlantirishda yuqori natija beradi.

Shu asosda boshlang‘ich ta‘limda ijodiy yozuvni o‘rgatish bo‘yicha quyidagi takliflar beriladi:

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta‘lim to‘grisida”gi O‘RQ-637-son Qonuni / “Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi”, 24.09.2020 y., 03/20/637/13-13-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026 yillarda Xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash to‘grisida”gi PF-134-son Farmoni.
3. Mahmudov N. Nutq madaniyati asoslari. Toshkent. “O‘qituvchi” - 2014. 56-78-bet.
4. Qurbonova M. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi. TDP, 2019. Toshkent. 102-118-bet
5. Qodirova F. Boshlang‘ich ta‘limda savod o‘rgatish kitobi. Toshkent. 2020.y 59-103-bet.
6. Ziyomhammadov B., To‘xtasinov A. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent. “Fan”, 2011. 134-165-betlar.

UO‘K: 372.8:004.9:37.013(575.1)

#### YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA DARSLIKLAR BILAN ISHLASH BO‘YICHA O‘QUV JARAYONINI LOYIHALASH

<https://zenodo.org/records/18754650>

**Kosimova Gullola Mullajonovna**  
Andijon davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yangi pedagogik texnologiyalar asosida darsliklar bilan ishlash jarayonini samarali tashkil etish va uni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish masalalari yoritiladi, darslik materiallarini didaktik talablarga mos ravishda tanlash, qayta ishlash va o‘qitish jarayoniga tatbiq etish usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv orqali o‘quvchilarning bilim faolligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Natijada, yangi pedagogik texnologiyalar vositasida darsliklar bilan ishlashni takomillashtirish, o‘quv jarayonini samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilar mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** yangi pedagogik texnologiyalar, darsliklar bilan ishlash, o‘quv jarayonini loyihalash, didaktik jarayon, interfaol metodlar, o‘quvchi faolligi, zamonaviy ta‘lim, kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta‘lim.

**Аннотация.** В данной работе рассматриваются вопросы эффективной организации процесса работы с учебниками на основе новых педагогических технологий и их интеграции в учебный процесс, анализируются методы отбора, переработки и внедрения учебных материалов в процесс обучения в соответствии с дидактическими требованиями. Также изучаются возможности повышения познавательной активности учащихся посредством интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий и компетентностно-ориентированного подхода. В результате разрабатываются практические рекомендации, направленные на совершенствование работы с учебниками с использованием новых педагогических технологий, повышение эффективности учебного процесса и развитие самостоятельного мышления учащихся.

**Ключевые слова:** новые педагогические технологии, работа с учебниками, проектирование учебного процесса, дидактический процесс, интерактивные методы, активность учащихся, современное образование, компетентностно-ориентированное обучение.

**Abstract.** This article discusses the issues of effectively organizing the process of working with textbooks based on new pedagogical technologies and integrating them into the educational process, analyzes methods for selecting, adapting, and implementing textbook materials in accordance with didactic requirements. It also explores the possibilities of enhancing students' learning activity through interactive methods, information and communication technologies, and a competency-based approach. As a result, practical recommendations are developed to improve work with textbooks using new pedagogical

*technologies, increase the effectiveness of the educational process, and foster students' independent thinking.*

**Keywords:** *new pedagogical technologies, working with textbooks, instructional design, didactic process, interactive methods, student activity, modern education, competency-based education.*

Zamonaviy ta'lim islohotlari sharoitida o'quv jarayonini samarali tashkil etish yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur texnologiyalar nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Global ta'lim maydonida yuz berayotgan o'zgarishlar, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, raqamli ta'lim vositalarining jadal kirib kelishi o'quv jarayonini tubdan yangicha tashkil etishni talab etmoqda. Shu bois o'qituvchining zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirishi, dars jarayonida interaktiv metodlar, AKT, muammo asosida o'qitish, loyihaviy faoliyat kabi texnologiyalardan oqilona foydalanishi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir [1].

Ta'lim jarayonini loyihalashda darsliklar bilan ilmiy asosda ishlash alohida o'rin tutadi. Darslik mazmunini chuqur tahlil qilish, undagi bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni aniqlash, topshiriq va mashqlarni metodik jihatdan to'g'ri qayta ishlash va o'quv jarayoniga moslashtirish o'qituvchidan yuksak malakani talab qiladi. Darslik materialining ilmiy-nazariy asoslarini anglash, uni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik ehtiyojlari va tayanch bilimlariga mos holda tatbiq etish jarayonning samaradorligini belgilaydi.

Yangi pedagogik texnologiyalar asosida darsliklar bilan ishlash o'quv jarayonini tizimli ravishda, bosqichma-bosqich loyihalashni zarur etadi. Bu esa dars maqsadini aniq belgilash, natijaga yo'naltirilgan metodlarni tanlash, o'quvchini faollikka undaydigan topshiriqlarni ishlab chiqish, baholash mezonlarini oldindan belgilash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Natijada darslik nafaqat o'quv materiallarining manbai, balki o'quv faoliyatini tashkil etuvchi muhim didaktik vosita sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda darslik ustida ishlash o'quv jarayonining sifat va samaradorligini yangi bosqichga ko'taradi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida darsliklar bilan ishlash nafaqat o'quv materiallarini oddiy tarzda taqdim etishni, balki ularni o'quvchi markazidagi faoliyatlarga aylantirishni ham o'z ichiga oladi. Bunday yondashuv darslik mazmunining chuqur tahlil qilinishini, har bir bo'limning didaktik imkoniyatlarini aniqlashni va uni o'quvchilarning yosh xususiyatlari hamda tayyorgarlik darajalariga moslashtirishni talab etadi [2]. Darslik materiallari tarkibidagi matnlar, mashqlar, rasmlar, jadvallar, savollar va topshiriqlar zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali o'quv jarayonining faol bo'g'iniga aylantiriladi.

Bu jarayonda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning izlanish faoliyatini boshqaruvchi, yo'naltiruvchi va ularni mustaqil fikrlashga undovchi fasilitator rolini bajaradi. Darslikning har bir bo'limidagi asosiy mavzular o'quv maqsadlari bilan uyg'unlashtiriladi, o'quvchilarni faollashtiruvchi metodlar tanlanadi va ularga mos pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi. Masalan, mavzularni tushuntirish jarayonida klaster, konseptual xarita, "Aqliy hujum", guruhlar bilan ishlash, "INSERT", "Baliq skeleti" kabi metodlardan foydalanish dars mazmunining ochilishiga samarali xizmat qiladi.[3] Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darslik bilan ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Multimedia vositalari, elektron darsliklar, videodarslar, test platformalari, virtual ta'lim muhiti va onlayn topshiriqlar o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi, murakkab mavzularni esa yengil o'zlashtirishga yordam beradi. Bu jarayon o'quvchi faoliyatini shunchaki bilim olishdan tashqari, uni tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va amaliy qo'llash darajasiga ko'taradi. Kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv esa o'quv jarayonining asosiy maqsadlarini yangi bosqichga olib chiqadi. Ya'ni, darslikdagi materiallar yordamida

o'quvchida amaliy ko'nikmalar shakllanadi, tanqidiy va ijodiy fikrlash rivojlanadi, muloqot, hamkorlik, muammo yechish kabi hayotiy kompetensiyalar mustahkamlanadi. Bu yondashuvlar orqali o'quvchilarning bilish jarayonlari faollashadi, ular darslikdagi ma'lumotni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol o'rganuvchi, izlanishga tayyor shaxs sifatida shakllanadi. Natijada, darslik asosidagi o'qitish innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan boyitilganda o'quv jarayoni samaradorligi sezilarli darajada oshadi, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi kuchayadi, ularning mustaqil ta'lim olishga bo'lgan ehtiyoji va motivatsiyasi ortadi. Bunday yondashuv zamonaviy ta'lim talablari bilan to'liq uyg'un bo'lib, o'quvchini hayotiy vaziyatlarda bilimni qo'llay oladigan kompetent shaxs sifatida shakllantiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning darsliklarga integratsiyasi o'quv jarayonini hozirgi davr ta'lim talablari asosida samarali loyihalash imkonini yaratadi. Bu jarayon nafaqat ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqishni, balki o'qitish metodlari, shakllari va ta'lim vositalarini ham kompleks tarzda yangilashni taqozo etadi. Xususan, darslik mazmunining interfaol topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, loyihaviy ishlar va raqamli resurslar bilan boyitilishi o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi.

Natijada, an'anaviy bilim berishga yo'naltirilgan yondashuv o'rnini o'quvchi faoliyatiga asoslangan, natijaviy ta'lim modeli egallaydi. Bunda o'quvchi bilimlarni tayyor holda qabul qiluvchi subyekt emas, balki ularni mustaqil izlanish, tahlil va amaliy faoliyat jarayonida egallovchi faol ishtirokchi sifatida shakllanadi. Mazkur yondashuv o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish, jamoada ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon beradi.

Shuningdek, ta'lim jarayonining natijaviylikka yo'naltirilishi o'quvchilarning bilim darajasini baholash tizimida ham sifat jihatidan muhim o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. An'anaviy nazorat shakllari bilan bir qatorda formatif baholash, refleksiya va o'z-o'zini baholash usullarining joriy etilishi o'quvchilarning o'z ta'lim faoliyatini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda shaxsiy o'sish trayektoriyasini belgilash imkonini beradi. Natijada, baholash jarayoni faqat yakuniy natijani aniqlovchi vosita emas, balki o'quvchilarni rivojlantiruvchi va ularni ta'lim jarayoniga faol jalb etuvchi pedagogik mexanizmga aylanadi.

Mazkur sharoitda o'qituvchining pedagogik roli ham tubdan o'zgaradi. U endilikda faqatgina bilimlarni uzatuvchi shaxs sifatida emas, balki o'quvchilarning bilish jarayonini samarali tashkil etuvchi, ularni mustaqil fikrlashga, izlanishga va muammoli vaziyatlarni hal etishga yo'naltiruvchi fasilitator sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi tomonidan yaratilgan qulay ta'lim muhiti o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytiradi, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shu tariqa, dars jarayoni subyekt-subyekt munosabatlariga asoslangan, o'zaro hurmat va hamkorlikka yo'naltirilgan samarali ta'lim maydoniga aylanadi. Darsliklar mazmuniga raqamli ta'lim resurslari, interfaol topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va hayotiy misollarning kiritilishi o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshiradi. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, onlayn platformalar va multimediya vositalaridan foydalanish darslarni yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga imkon beradi. Bunday yondashuv o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini kuchaytirib, ularning tanqidiy fikrlash, muloqot qilish, axborot bilan ishlash kabi muhim kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonlari va ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga o'tishi darsliklarning faqat axborot manbai sifatidagi vazifasini cheklab qo'ymaydi. Aksincha, darslik o'quvchilarni faol o'qishga jalb etuvchi, mustaqil ta'lim olishga undovchi va o'rganilgan bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltiruvchi yaxlit didaktik tizim sifatida talqin etiladi<sup>1</sup>Bu jarayonda o'qituvchining roli ham tubdan o'zgaradi [3]. U endilikda

tayyor bilimni yetkazib beruvchi emas, balki o'quvchilarning izlanishlari, fikrlash jarayonlari va o'zlashtirish faoliyatlarini yo'naltiruvchi fasilitator, maslahatchi va hamkor sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi o'quv topshiriqlarini tanlashda, ularni bosqichma-bosqich murakkablashtirishda, o'quvchini mustaqil ishlashga undovchi muhit yaratishda markaziy figura bo'lib qoladi.

Darslarda raqamli resurslar—elektron darsliklar, videodarslar, simulyatsiyalar, interaktiv platformalar, virtual laboratoriyalardan foydalanish o'quv jarayonini yanada jonli, ko'rgazmali va qiziqarli qiladi. Interfaol topshiriqlar, jamoaviy loyiha ishlari, muammo yechishga qaratilgan vazifalar, ijodiy mashqlar o'quvchining darsdagi faolligini oshiradi, murakkab bilimlarni sodda va tushunarli ko'rinishda o'zlashtirishga yordam beradi.

Bunday yondashuv o'quvchilar motivatsiyasini oshiradi, ularning muloqot, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarga yechim topish, jamoada ishlash kabi universal kompetensiyalarini rivojlantiradi [4]. Eng muhimi, o'quvchilar real hayotda zarur bo'ladigan ko'nikmalarni egallaydi va o'z bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada ta'lim jarayoni samarali, tizimli, zamonaviy va o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan holga keladi.

Xulosa qilib aytganda, yangi pedagogik texnologiyalar vositasida darsliklar bilan ishlash va o'quv jarayonini loyihalash ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan samarali yondashuvdir. Bu uslub o'quv materiallaridan maqsadli va oqilona foydalanishni ta'minlaydi, o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, o'qitish jarayonini global ta'lim standartlariga moslashtiradi. Natijada, o'quv jarayoni zamonaviy talablarga mos keladigan, faol, mustaqil va motivatsiyaga ega bo'lgan o'quvchilarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ta'lim jarayonining natijaviylikka yo'naltirilishi o'quvchilarning bilim darajasini baholash tizimida ham sifat jihatidan muhim o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. An'anaviy nazorat shakllari bilan bir qatorda formatif baholash, refleksiya va o'z-o'zini baholash usullarining joriy etilishi o'quvchilarning o'z ta'lim faoliyatini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda shaxsiy o'sish trayektoriyasini belgilash imkonini beradi. Bunday yondashuv o'quvchilarda mas'uliyat hissini kuchaytirib, ularning o'qishga bo'lgan ongli munosabatini shakllantiradi. Natijada, baholash jarayoni faqat yakuniy natijani aniqlovchi vosita bo'lib qolmay, balki o'quvchilarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi va ularni ta'lim jarayoniga faol jalb etuvchi samarali pedagogik mexanizmga aylanadi.

Mazkur sharoitda o'qituvchining pedagogik roli ham tubdan o'zgaradi. U endilikda faqatgina bilimlarni uzatuvchi shaxs sifatida emas, balki o'quvchilarning bilish jarayonini maqsadli va tizimli tashkil etuvchi, ularni mustaqil fikrlashga, izlanishga va muammoli vaziyatlarni hal etishga yo'naltiruvchi fasilitator sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi tomonidan yaratilgan qulay va ochiq ta'lim muhiti o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytiradi, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda har bir o'quvchining individual qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shu tariqa, dars jarayoni subyekt-subyekt munosabatlariga asoslangan, o'zaro hurmat, hamkorlik va faollikka yo'naltirilgan samarali ta'lim makoniga aylanadi.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. 156-b.
2. Abdullayeva N.A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini aniq fanlarni uzluksizlik yondashuv asosida o'qitishga tayyorlash. "Uzluksiz ta'lim" Ilmiy-uslubiy jurnal. Maxsus son. 2022. 82-b.

3. Sobirova D., Abdullayeva M. Boshlang 'ich sinf o 'qish darslarini lg 'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish. - SCHOLAR, 2024 - scholar-journal.org

4. Novshadbekova D.Z.. "Development of students' intellectual creative thinking skills: a modern approach". International bulletin of applied science and technology. 2024. №5.

UO'K: 30.428

## MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA NUTQ O'STIRISH DARSLARI ORQALI "SOFT SKILLS" KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

<https://zenodo.org/records/18754660>

**Xoldarova Mubina Qudratbek qizi**  
**Tairova Madinabonu Baxtiyarovna.**  
*Andijon davlat pedagogika insituti*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida yumshoq ko'nikmalarni (soft skills) shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, maktabgacha ta'lim yonalishlarida talabalarning kommunikativ madaniyati, jamoada ishlash, mustaqil fikrlash va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilgan. Bu jarayonda nutq o'stirish darslari soft skills ko'nikmalarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi MDH mamlakatlaridan Rossiya va Qozog'iston ta'lim amalyotida nutqni rivojlantirish mashg'ulotlari orqali ijtimoiy – kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish samarali metod sifatida qo'llanilgan. Mazkur tajribalar maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida nutq o'stirish darslari orqali soft skills ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini ilmiy asoslash zarurati berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *eksperemental, metadalogiya, eksperement, nutq o'stirish, diagnostika, interaktiv, soft skills, muloqot, empatiya, emotsional kommunikativlik, refleksiya, maktabgacha ta'lim.*

**Аннотация.** *В данной статье особое внимание уделяется формированию мягких навыков (soft skills) на основе личностно-ориентированного подхода в процессе модернизации системы образования Республики Узбекистан. В частности, в направлениях дошкольного образования проводится системная работа по развитию у студентов коммуникативной культуры, навыков работы в команде, самостоятельного мышления и речевых компетенций. В данном процессе занятия по развитию речи рассматриваются как эффективное средство формирования soft skills и имеют важное педагогическое значение. В образовательной практике стран СНГ, в частности России и Казахстана, развитие социально-коммуникативных навыков посредством занятий по развитию речи широко применяется как эффективный метод. Данный опыт обосновывает необходимость научного обоснования методики развития soft skills у студентов направления дошкольного образования через занятия по развитию речи.*

**Ключевые слова:** *экспериментальный, методология, эксперимент, развитие речи, диагностика, интерактивный, эффективность, сотрудничество, soft skills, общение, эмпатия, эмоциональная коммуникативность, рефлексия, дошкольное образование.*

**Abstract.** *This article focuses on the growing attention given to the development of soft skills based on a learner-centered approach in the process of modernizing the education system of Uzbekistan. In particular, systematic efforts have been carried out in preschool education programs to develop students' communicative culture, teamwork skills, independent thinking, and speech competence. In this process, speech development classes play a significant role as an effective means of forming soft skills. In the educational practices of CIS countries, such as Russia and Kazakhstan, the development of social and communicative skills through speech development activities has been widely applied as an effective pedagogical method. These experiences highlight the necessity of providing a scientific justification for the methodology of developing soft skills in preschool education students through speech development classes.*

**Keywords:** *experimental, methodology, experiment, speech development, diagnostics, interactive, effectiveness, cooperation, soft skills, communication, empathy, emotional communicativeness, reflection, preschool education.*

Maktabgacha ta'lim yo'nalishida yumshoq ko'nikmalarni shakllantirish bugungi ta'lim tadqiqotlarining muhim yo'nalishi sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston ta'lim tizimida nutq,

